



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, so'zning semantik tarkibini ona tili darslarida yuqoridagi usullar yordamida o'quvchilarga o'rgatish anchayin samarali hisoblanadi. Negaki bunday usullar orqali o'quvchilar darsda faol ishtirok etishadi, o'rgangan bilimlari va yangi ma'lumotlarini tahlil qila olishadi hamda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. Ona tili o'qitish metodikasi. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi nashriyoti. Toshkent, 2006.
2. Usmonboyeva M., Aripova Sh., Rejаметова I., Mo'minova D. Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. Metodik qo'llanma. Toshkent, 2019.
3. Xurramova Z. "Ona tili o'qitishda integrativ yondashuv" bitiruv malakaviy ishi.
4. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M. va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2012.

Internet saytlari:

5. <https://uz.wikipedia.org/wiki>.
6. www.sadikov.uz.

ONA TILI TA'LIMIDA O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLAR TAHLILI

Ahmadjonova Umida Ikromjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

E-mail : ahmadjonovaumida8170@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'qib tushunish ko'nikmasi haqidagi ma'lumotlar va Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan 6-sinf "Ona tili" darsligidagi ushbu ko'nikmani oshiruvchi mashqlar tahlili, shuningdek, taklif sifatida darslikdagi nutqiy mavzu :rasida tuzilgan yangi topshiriqlar berilgan.

Kalit so'zlar: *nutqiy ko'nikma, o'qib tushunish, muloqot, darslik, topshiriq, hayotiy ko'nikma, savodxonlik, nutqiy mavzu, tahlil qilish, til boyligi, moslashtirish, taxmin qilish.*

Аннотация. В данной статье приводятся общие сведения о навыках понимания прочитанного, а также анализ упражнений, которые развивают этот навык в учебнике по родному языку для 6-го класса, созданном на основе Национальной учебной программы. В качестве предложения вы также можете ознакомиться с анализом новых заданий, созданных в рамках речевой темы в учебнике.

Ключевые слова: *навыки говорения, понимание прочитанного, коммуникация, учебник, задание, жизненные навыки, грамотность, речевая тема, анализ, языковые навыки, адаптация, прогнозирование.*

Abstract: This article provides some general information about the skill of reading comprehension, and an analysis of exercises that improve this skill in the 6th grade native language textbook created on the basis of the National Curriculum. Also, as a suggestion, you can see an analysis of new tasks created within the framework of the speech topic in the textbook.

Keywords: *Speech skill, reading comprehension, communication, textbook, task, life skill, literacy, speech topic, analysis, language wealth, adaptation, prediction.*



Hozirgi taraqqiy topayotgan jamiyatimizda inson nazariy ko'nikmalar bilan birgalikda nutqiy ko'nikmalarga ham ehtiyoj sezib kelmoqda hamda ta'limda o'quvchilarga bilim, ko'nikma va malaka berish bilan birgalikda ularning hayotiy ko'nikmalarini oshirish ham asosiy muammo sifatida qaralmoqda. Shu boisdan hozirgi zamon yangi darsliklari, ayniqsa, ona tili darsliklarida o'quvchilarning lingvistik ko'nikmalari, grammatika yuzasidan bilimlari bilan birga ularning nutqiy ko'nikmalarini (o'qib tushunish, tinglab tushunish, yozma va og'zaki nutq) rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Yuqoridagi ko'nikmalar bilan bir qatorda o'qib tushunish ko'nikmasi va uni rivojlantiruvchi topshiriqlarga ham alohida e'tibor berilgan. Avvalo, o'qib tushunish ko'nikmasi haqida umumiy ma'lumotlar beradigan bo'lsak, o'qib tushunish – bu matnni grafika yordamida ifodalangan mazmunini muloqot vazifasiga muvofiq qabul qilish va qayta ishlash, mazmunan anglashga :r ko'nikma. Rasmlar, chizmalar, grafiklarda tasvirlangan axborot tushunish shuningdek, ovozlashtirilimagan videomateriallarni ko'rib, ularda berilgan axborotni tushunish ham o'qib tushunish jarayoniga kiradi. [1:37]

Bugungi kunda bu qobiliyat shaxs butun umri davomida turli xil kontekstlarda o'z tengdoshlari va keng jamoatchilik bilan muloqot qilish asosida rivojlantirib boradigan bilim, ko'nikma va malakalar, usullar jamlanmasi sifatida ta'riflanadi. Jamiyat hayotida to'liq ishtirok etish maqsadida inson uchun bilim olish, barcha ma'lumotlarni aniqlash, tushunish va aks ettirish qobiliyati juda muhimdir. Ma'lumki, o'qish savodxonligi nafaqat ta'lim tizimida, balki boshqa sohalarda ham yutuqlarga erishish uchun asos, zaruriyat hisoblanadi. O'quvchining kitob o'qish qobiliyatiga e'tibor qaratish, jumladan, uning ma'lumotni tanlash, tushunish, talqin qilish va baholash tadqiqotning asosiy maqsadlaridan biridir. [2:13]

Zamonaviy darsliklar nutqiy ko'nikmaga oid topshiriqlar va nutqiy mavzularga boy ekani bilan ajralib turadi. Quyida yangi o'qib tushunish ko'nikmasini oshirishga qaratilgan matn va topshiriqlar tahlilini keltirib o'tamiz.

6-sinf ona tili darsligidagi [2]“Teleboshlovchi bo'lib qolsam” nutqiy mavzusi :rasida keltirilgan “Teleboshlovchi kim?” nomli matn asosida berilgan o'qish ko'nikmasini oshiruvchi topshiriqlar olindi. Dastlab matnning o'ziga to'xtaladigan bo'lsak, matndagi til soddaligi 6-sinf o'quvchisi uchun tushunarli va yosh darajasiga mos tushadi. Bundan tashqari, bolalarda teleboshlovchilik kasbiga nisbatan qiziqish uyg'otadi.hamda teleboshlovchilik, suxandonlik, televideniya tarixi haqida foydali ma'lumotlar berib o'tadi.

Matndan so'ng ma'lumotlarni mustahkamlovchi topshiriqlar berilgan bo'lib, ulardan birinchisi matn asosida tuzilgan 9 ta savol.

1. Teleboshlovchilik kasbi qachon, qaysi voqeadan so'ng paydo bo'ldi?
2. Nima uchun dastlab teleboshlovchilik kasbi ko'p tarmoqli bo'lmagan?
3. Ko'rsatuvlarning turiga qarab, teleboshlovchilikning qanday yo'nalishlari borligi haqida gapiring.



4. Yangiliklar sharhlovchisi bilan ko'ngilochar ko'rsatuv boshlovchisining qanday farqi bor?

5. Suxandon va teleboshlovchining farqi nimada?

6. Teleboshlovchi qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak? Bu xislatlar ularga nima uchun kerak bo'ladi? Fikrlaringizni asoslab bering.

7. Nima uchun teleboshlovchilik dunyodagi eng og'ir kasblardan biri hisoblanadi?

8. Sizningcha, teleboshlovchilik qanday kasb? O'z fikringizni erkin bildiring, tanqid qilishdan cho'chimang.

9. Sizningcha, teleboshlovchi va suxandon nutqi uchun qanday talab qo'yilishi mumkin?

Bu kabi topshiriqlar Shohrux Abduraimovning "O'qib tushunish malakasini baholash" maqolasida keltirilganidek, ochiq turdagi testlar guruhiga kiradi. Bu turdagi topshiriqlarni afzalligini bir necha o'rinlarda ko'rishimiz mumkin. [3:31] Masalan:

a) mustaqil fikrlashni rivojlantiradi – ochiq turdagi savollar aniq javob talab qilmagani uchun unda o'quvchi o'z fikrini erkin bayon qila oladi;

b) ijodiy yondashuvni kuchaytiradi – har bir o'quvchi o'ziga xos javob beradi, bu esa ijodkorlikni oshiradi;

c) nutq va yozma savodxonlikni oshiradi – o'quvchi fikrini yozma yoki og'zaki tarzda ifodalab, til ko'nikmalarini mustahkamlaydi;

d) matn mazmunini chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi – matnga qayta murojaat qilish, asosli javob izlash orqali o'rganish chuqurlashadi.

Yuqoridagi topshiriqning afzalliklari ko'p bo'lishiga qaramasdan, ayrim kamchiliklarini ham ko'rishimiz mumkin.

- Bu turdagi topshiriq ko'p vaqt talab qiladi – o'quvchilar har bir savolga mustaqil javob yozishi kerak bo'ladi, bu esa dars vaqtini cho'zilishiga olib keladi.

- O'quvchini charchatishi mumkin – bir matn uchun 9 ta ochiq turdagi savol ko'p tuyulib, o'quvchining e'tiborini pasaytirishi mumkin.

- Baholash biroz murakkabroq bo'ladi – ochiq javoblar subyektiv bo'lishi mumkin, bu esa adolatli baholashni qiyinlashtiradi.

Shu boisdan ushbu topshiriq uchun taklif kiritadigan bo'lsak, quyidagi holatda matn asosidagi 3 ta ochiq testli savol qoldirilib, uning davomida esa yangi test turi – bo'shliqlarni to'ldiruvchi topshiriq berilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Tog'ri, bunda mazmun o'zgarmasligi mumkin, ammo shaklning o'zgarishi natijasida 11–12 yoshli tez zerikuvchan o'quvchining diqqatini oshira olamiz. Quyida bu topshiriqqa namuna keltiriladi:

**Yuqorida berilgan matnga asoslanib, quyidagi gaplardagi bo'sh joylarga mos so'zlarni yozing. Matnni eslang va undan foydalaning. So'zlarni to'g'ri shaklda yozishga e'tibor bering.*

1. Vaqt o'tib ko'rsatuvlar ____, ____, va ____ kabi turlarga bo'lindi.

2. ____ va ____ kishilar uchun teleboshlovchilik kasbi mos emas.



3. Teleboshlovchining ____, va ____ millionlab tomoshabinlar oldida uyalib qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

4. Teleboshlovchi hech qachon yolg'iz ishlamaydi, u bilan ____, ____, ____, ____, ____, va ____ lar birgalikda ishlashadi.

Bu kabi bo'shliqlarni to'ldirish topshirig'i o'quvchilarning diqqatini jamlashni rivojlantiradi – o'quvchi matndan kerakli so'z yoki iborani topishga harakat qiladi, bu esa e'tiborli bo'lishga undaydi. Shu bilan bir qatorda, o'qilgan matnni yaxshiroq tushunishga yordam beradi, ya'ni bo'sh joyni to'ldirish uchun matn mazmunini tushunish zarur, bu esa matnni chuqurroq o'zlashtirishni ta'minlaydi. Yana bir afzalligi esa so'z boyligini oshiradi – turli so'zlar va iboralarni qayta ishlatish orqali o'quvchi til boyligini rivojlantiradi. Shu bilan birga ushbu topshiriq o'quvchilarning imloviy savodxonlik ko'nikmasini mustahkamlaydi – to'g'ri yozish uchun bola so'z shakllariga va harflarga e'tibor qaratadi. Buning o'qituvchi uchun foydali tomoni shuki, ushbu topshiriqni baholash oson, ya'ni o'qituvchi uchun topshiriqni tekshirish va baholash nisbatan yengil va aniq bo'ladi. Hatto javoblarni elektron yoki an'anaviy doskalarga yozib, o'quvchilarning o'z o'zini baholashlariga imkon berishlari mumkin.

“Teleboshlovchi kim?” matni asosidagi o'qib tushunishni oshiruvchi samarali topshiriqlardan yana biri “ Sarlavha top” (Heading) topshirig'idir. Bu topshiriqda yuqorida keltirilgan yaxlit matn ma'naviy butunlikni saqlab qolgan holda qismlarga bo'lib chiqiladi va har bir qism biron belgi (harf, raqam kabilar) bilan ajratiladi. Masalan:

A. XX asrning 40-yillariga kelib dunyoda teleboshlovchilik kasbi paydo bo'ldi. Chunki shu yillarda endigina ixtiro qilingan televizor odamlarning uylariga kirib kela boshlagandi. U vaqtlarda telekanallar hozirgidek ko'p bo'lmagan. Faqat bitta kanal bo'lgan. Efir vaqti esa kuniga bir soatdan oshmagan. Shu vaqtda mahallada yagona bo'lgan “televizorli xonadon”ga butun qo'niqo'shnilar yig'ilib, maza qilib televizor ko'rishgan. Ekranda ko'rinish berib, so'nggi yangiliklarni aytayotgan teleboshlovchi esa odamlarning eng qadrdon kishisiga aylanib ketgan.

B. Yillar o'tib, telekanallar ham, ko'rsatuvlar ham ko'paydi. Ko'rsatuvlar axborot, ko'ngilochar va shou kabi turlarga ajraldi. Natijada, yangiliklar va sport sharhlovchisi, obhavo ma'lumotlari, shou va musiqiy ko'rsatuvlar boshlovchisi kabi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Endi har bir ko'rsatuv uchun alohida-alohida teleboshlovchi kerak bo'lardi. Sababi “Axborot” ko'rsatuvining boshlovchisi uchun “Musiqiy tanaffus” ko'rsatuviga ham boshlovchilik qilish qiyin edi-da.

C. Teleboshlovchi studiyada faoliyat yuritadi. Aytgandek, suxandon va teleboshlovchini bir-biridan farqlash kerak. Suxandon tayyor matnni o'qib beradi. Ya'ni o'zi ijod qilmaydi. Ular asosan informatsion ko'rsatuvlarda ishlaydi. Teleboshlovchi esa izlanadi, kerakli ma'lumotlarni yig'adi, mustaqil ravishda intervyular oladi, qayerda qanday gapirish kerakligi ustida bosh qotiradi, vaziyatga qarab improvizatsiya qila oladi. Bir so'z bilan aytganda, ular ijodkor bo'lishadi.



Matn yuqoridagi kabi ko'rinishga kelgandan so'ng har bir qismga mos sarlavhalar varianti beriladi, o'quvchi esa qaysi matnga qaysi sarlavha to'g'ri kelishini moslashtirib chiqadi.

Namuna. **Harflar bilan belgilangan matnni o'qing va quyida keltirilgan sarlavhalar bilan moslashtiring.**

A	Teleboshlovchilikda yo'nalishlarning ortishi
B	Suxandon tayyor matnni o'qib beradi
C	Televideniye tarixi
D	Teleboshlovchining sifatleri
E	Sabr, mehnat va intizom kasbi
F	Efir ortidagi mutaxassislar
	Suxandon va teleboshlovchining farqi
	Teleboshlovchi odamlarning eng qadrdon kishisi

Bu va bu kabi moslashtirish topshiriqlarining o'qib tushunish ko'nikmasini oshirishdagi ahamiyatida juda katta bo'lib, uning afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Matnni tahlil qilishga undaydi. Moslashtirishda o'quvchi matn mazmunini to'liq tushunishi va uni qayta ifodalashi kerak bo'ladi. Bu esa faqat o'qib chiqish emas, balki chuqur tushunishni ham talab qiladi.

2. Asosiy g'oyani ajrata olishni o'rgatadi. Moslashtirish uchun o'quvchi matndagi ortiqcha tafsilotlarni ajratib, asosiy ma'no va fikrlarni ajratishni o'rganadi.

3. Sarlavhalar sonining matn soniga nisbatan ko'pligi o'quvchining hukm chiqara olish qobiliyatini, ikki yo'ldan aynan qaysi biri to'g'ri ekanligini topa olish ko'nikmasini oshiradi.

4. Agar bu topshiriqning bajarilishi juftlik yoki jamoa shaklida tashkil qilinsa, o'quvchilarning yuqoridagi ko'nikmalari bilan birgalikda hamkorlikda ishlash ko'nikmalari ham oshib boradi.

Ushbu mavzu :rasida yana bir yangi va samarali topshiriq tahliliga o'tsak. Ushbu topshiriq o'quvchi uchun biroz murakkab bo'lgan so'zlarni yoki yangi



so'zlarni mustahkamlash uchun yordam beradi. Bundan tashqari matn tarkibida (kontekstda) o'quvchi bir so'zni o'qib tushungan ma'nosi bilan birga lug'atda keltirilgan izohni solishtirib ko'rish va ular o'rtasidagi farqlarni taqqoslab ko'rish imkoniga ega bo'ladi. Bunga qo'shimcha ravishda o'quvchi so'zlar izohini o'zi tushungani bo'yicha yozgani bois ularning yozma nutqi, agar o'quvchi fikrini og'zaki bayon qilsa, uning og'zaki nutqi ham bir muncha rivojlanadi. 6-sinf "Ona tili" darsligidagi "Teleboshlovchi kim?" matni asosida tuzilgan topshiriq namunasini quyida ko'rish mumkin.

**O'qigan matningizni yana bir bor ko'rib chiqing. Birinchi ustunga siz uchun notanish bo'lgan so'zlarni yozing, ikkinchi ustunga ularni siz taxmin qilgan ma'nosini yozing, uchunchi ustunga esa lug'atdan olgan aniq ma'nosini yozing.*

So'z	Men taxmin qilgan ma'no	Lug'atda keltirilgan izohi
Telekanal		
Shou		

Yuqorida keltirilgan topshiriq o'quvchida quyidagi xususiyatlarni oshiradi:

1. So'z boyligini oshiradi: kontekstdagi notanish so'zlarni topish va ularning ma'nolarini o'rganish orqali lug'at boyligi kengayadi.
2. Konteks orqali tushunishni rivojlantiradi: so'z ma'nosini taxmin qilish orqali kontekstdan foydalangan holda tushunish ko'nikmasini mustahkamlaydi.
3. Tahlil qilish ko'nikmasini oshiradi: so'zlarning farqli ma'nolarini solishtirish orqali o'quvchi tafakkur qilish va analiz qilishni o'rganadi.
4. O'rganilgan bilim yanada mustahkamlanadi: o'quvchi tahminini lug'at bilan solishtirish orqali notanish so'zning izohini chuqurroq eslab qoladi.

Xullas, o'qish savodxonligini oshirishda yangi avlod darsliklarining o'rni katta. Negaki, hozirgi darsliklar lingvistik ko'nikmalar bilan birga nutqiy ko'nikmalarni ham rivojlantirishga qaratilgan. Hamda yuqorida tahlil qilingan topshiriqlar o'qish savodxonligini oshirishga samarali yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Asilova G., F. Achik. Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish asoslari [Matn]: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Publishing high future OK, 2024. – 115 b. quv
2. Ona tili: 6-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b.
3. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash (Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma). Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil, 92 bet.
4. Abduraimov, Sh (2021). O'qib tushunish malakasini baholash usullari//Til va adabiyot ta'limi, 8-son. 31–32-b.



<i>MASALASI</i>	
<i>Abdiraimova Khusnobod Samat kizi. KOGNITIV VA METAKOGNITIV O'QIB TUSHUNISH STRATEGIYALARI</i>	597
<i>Xonzodabegim Abdiyeva Turdiboy qizi. ONA TILINI O'QITISHDA FOTO MATERIALLARDAN FOYDALANISH</i>	603
<i>Abduqaxxorova Durdona Farxod qizi. SO'ZNING SEMANTIK TARKIBIDA ASOS VA AFFIKSLARNI O'QITISH USULLARI</i>	605
<i>Ahmadjonova Umida Ikromjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLAR TAHLILI</i>	614
<i>Askarova Mashxura Akmal qizi. NOFILOLOGIK YO'NALISHLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA O'ZBEK TILINI O'QITISH</i>	620
<i>Atamurodova Gulnora Shermurodovna. TALAFFUZI QIYIN BO'LGAN AYRIM NUTQ TOVUSHLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI</i>	626
<i>Baxtiyorova Xusnora Muzaffar qizi. IJOD MAKTABLARIDA YOZMA NUTQ KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHGA OID AMALIY TOPSHIRIQLAR TAVSIFI</i>	630
<i>Avezova Dilnura Bayramovna. ESSE YOZISHDA YO'L QO'YILADIGAN XATOLAR VA ULAR USTIDA ISHLASH USULLARI</i>	635
<i>Axmadjanova Malika Maxmudjon qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA LUG'AT BOYLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI</i>	638
<i>Davronova Zebiniso Bahtiyor qizi. SEZGI A'ZOLARI ASOSIDA TASVIRIY MATN YARATISH JARAYONI TAHLILI</i>	646
<i>Ergasheva Lobarxon O'tkir qizi. TIL O'QITISH VA O'RGANISHDA AUTENTIK MATN VA UNDAN FOYDALANISHDAGI AFZALLIK VA KAMCHILIKLAR</i>	651
<i>Hamroyev Umid Mustafoyevich. O'QUVCHILARDA KOGNITIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH</i>	656
<i>Iskandarova Noila Muxtor qizi. PUBLITSISTIK USLUBNI O'RGANISH ORQALI O'QUVCHILARNING TANQIDIY VA IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH</i>	661
<i>Israilova Z. XORIJLIK TALABALARINING O'ZBEK TILIDA SO'Z O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI</i>	664
<i>Komilova Lola Nosillojevna. ONA TILI TA'LIMIDA DARAJALI TESTLAR</i>	670
<i>Axmadaliyeva Ozoda Iskandar qizi. 10-SINF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI</i>	677
<i>Madina Axmadjanova Mahmudjon qizi. MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARINI GRAMMATIK MINIMUM ASOSIDA O'QITISH TAMOIYILLARI</i>	682
<i>Komilov Xusanboy Bahodir o'g'li. ONA TILINI O'QITISHDA INTERFAOL DASTURLAR VA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH</i>	689
<i>Madvaliyev Orifjon Tolibovich. TAHRIR TA'LIMINI TASHKIL ETISH: DASTLABKI QADAMLAR</i>	693

